

“EMAS OSON BU MAYDON ICHRA TURMOQ”...

*NamDU magistranti
Farxodjonov Farruh*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Isajon Sultonning „Navoiy” romani yuzasidan ayrim mulohazalar berilgan. Romanning o’zigacha yaratilgan Navoiy haqidagi asarlar bilan o’xhash va farqli jihatlari qiyosiy tahlilga tortilgan.

Kalit so’zlar: Badiylik, roman, an’naviylik, janr, kulliyot.

Annotation: This article contains some comments on Isajon Sultan's novel "Navoi". The similarities and differences of the novel with the works about Navoi that have been created so far are analyzed.

Key words: Art, novel, traditionalism, genre, culture.

Аннотация: Данная статья содержит некоторые комментарии к роману Исаджона Султана «Навои». Анализируются сходства и отличия романа с произведениями о Навои, созданными к настоящему времени.

Ключевые слова: искусство, роман, традиционализм, жанр, культура.

Har bir inson dunyoga kelar ekan olloh tomonidan turli iste’dod va qobiliyatlar in’om etiladi. “Boqiy darbadar”, “Ozod” kabi romanlari orqali kitobxonlar qalbidan joy olgan Isajon Sulton bu safar tarix bilimdoni, betakror so’z zargari sifatida namoyon bo’ldi. Ya’ni adibning “Alisher Navoiy” romani bugungi kundagi ma’naviy zarurat tufayli yuzaga keldiki, bu ijodkorning yana bir yangi qirrasini namoyon etdi.

Emas oson bu maydon ichra turmoq, shu kunga qadar Alisher Navoiy haqida qator asarlar yaratilgan, kinofilmlar suratga olingan. SHunday bo’lsada yana ushbu buyuk shaxs taqdirini yoritishni niyat qilgan inson avvalo, tarixni yaxshi bilishi, keng tafakkur dunyosiga ega bo’lishi va o’zidan avval yaratilgan qahramonlarni takrorlamasligi joiz. Mahoratli ijodkor Isajon Sulton bu vazifani a’lo darajada bajardi desam mubolag’a bo’lmaydi.

Alisher Navoiy “Mantiq ut-tayr” asarini juda kichik yoshligida o’qib, hatto uni yod oladi. Lekin unga javob yozishga shoshilmaydi. CHunki bu asarga javob yozishga Hazrat Navoiy o’zini ma’nan tayyor emasman deb hisoblaydi. Ehtimol, mana shunday oniy bir tuyg’u ijodkor Isajon Sulton qalbidan ham o’tgan bo’lsa ne ajab. ZOTAN Isajon Sulton mahoratli ijodkor sifatida qator asarlar yaratgan. So’z san’atkori sifatidagi malakasi anchayin oshganda bu asarga qo’l urdi. SHu kunga qadar Alisher Navoiy dahosi haqida ko’plab asarlar yaratilgan. Xatto roman ham. Akademik Oybek allaqachon bu zot haqida roman yozgan. Oybek tomonidan yozilgan roman 1944-yilda nashr etilgan va o’shandan buyon dunyoning ko’plab tillariga tarjima qilingan. Oybek qalamiga mansub “Navoiy” romanidan farqli o’laroq Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani ramziy bir strukturaga ega. YA’ni asar Alisher Navoiyning “Xazoyin ul- ma’oni” devoni strukturasi singari to’rt qismga ajratilgan. Birinchi qism yosh

Alisherning bolalik yillari voqealarini o’z ichiga oladi. Ushbu qism “G’aroyib – us sig’ar” deb nomlanib, “Muqaddima” qism bilan boshlanadi. “Muqaddima” so’zi boshlanish ma’nosini bildiradi. Bu yerda muqaddima nafaqat ushbu bobni, yoinki, butun asarni, balki hayotni, tiriklikni boshlanishi ma’nosini ham ifodalaydi. “Bu ma’voda hech kim o’zining ne ekanini bilmaydi. Biroq o’z tirikligidan, tevarakdagi hayot jo’shqinliklaridan hayron-hayron turadi. Barchasi o’zlarida ro’y berayotgan o’zgarishlarga ajablanib, Olamlar Parvardigoriga shu tiriklik uchun so’ngsiz shukronalar aytishadi.”¹

Ikkinci qism “Navodir –ush shabob” deb nomlanib, unda Alisher Navoiyning yoshlik, o’spirinlik davrlari keng yoritiladi. Ushbu qism “Madh” deb nomlangan kirish qism bilan boshlanadi. Bu kirish qism birinchi bobdagi “Muqaddima”ning mantiqiy davomi hisoblanadi. Ushbu qismda keltirilgan quyidagi jumlalar yosh Alisherning boshiga tushadigan qiyinchiliklarga ishora sifatida kiritib ketilgan. “Ey olamdagি barcha hodisalarning Murabbiysi! bandalaring safarimizni xayrli qilgin deb yalinib-yolvorurlar. O’zing sori safarlarni xayrli qilgaysen, yo’lda uchraydigan barcha kishilarni yaxshiliklarga sabab aylagaysen, olddan chiqadigan balo-yu musibatlarni xayrlarga aylantirib qo’ygaysen!”² Hazrat Navoiyning o’sha daqiqalardagi qiyinchilikdagi ahvoli va mashaqqatli hayotini yanada aniqroq tasvirlash uchun mahoratlari ijodkor “Bas, albatta har bir og’irlik- mashaqqat bilan birga, yengillik ham bordur”³ oyatini oqsoqol tilidan keltirib o’tadi. Hazratning o’rtta yosh tafsilotlarini o’z ichiga olgan uchinchi qism “ Badoye – ul vasat” deb nomlanib ushbu qism ham an’anaviy tarzda Ollohga hamd bilan boshlanadi. “Hamd” qismda “Ey Tangrim, Sening karaming dengizi jo’sh urib turarkan, o’sha muhtojlar to’dasi oh-fiq’on chekib turgan chog’larida garchi ularning gunohlarining haddu- poyoni bo’lmasa-da, sening ularga rahm qilmasligingning ham imkon yo’qdur. Lutfingning shohona pardasini tortib, ularning qilgan qilmagan gunohlaridan kechganiningda, barchalari navozishing bilan hurmatga sazovor bo’lganlarida, bundan meni ham mahrum etmagaysen! Men faqir bandangga hur ham kerak emas, jannat ham. Mening uchun Sen o’zing bo’lsang, shuning o’zi bas!”⁴ “Hayrat ul- abror” dostonidan olingan ushbu parchani keltirish orqali yozuvchi bu davrga , bu yoshga kelib Alisher Navoiy o’z yo’lini qat’iy tanlab olganligini va bu yerda mustahkam o’rinlashganini ko’rsatmoqchi bo’ladi.

To’rtinchi qism “ Favoyid –ul kibar ” deb nomlanib, u “Hayrat” deb atalgan kirish qism bilan boshlanadi. Bu yerda “hayrat ” so’zi qator ma’nolarda qo’llanilgan. SHoirning keksalik davrlarini yorituvchi ushbu qismda , avvalo, u tomonidan yaratilgan nodir asarlar kishini hayrat soladi. CHunki Alisher Navoiyning qator nodir asarlari aynan shu davrlarda yaratilgan. “Xamsa” dan tortib, “Mahbub ul- qulub” gacha. Yana biri olamlar parvardigori inson zotini yaratib , uni mahluqotlar ichida eng mukarrami

¹ Isajon Sulton. Alisher Navoiy. Roman. Toshkent “Adabiyot” 2021.3-bet.

² O’sha asar . 120-bet.

³ O’sha asar . 123-bet.

⁴ O’sha asar. 202-bet.

qiliши va hamma narsalarni inson uchun musharraf qilishidir. Albatta, sharaful maxluqot uchun beminnat tarzda hamma nasrani in'om etilishi hayratlanarlidur. SHu bilan birga bu yerda Hazrat Navoiyning ham hayratlari aks ettirilgan. Temuriyzodalarning taxt ijinjida olishuvi, qondoshlarning bir- biri bilan qon to'kishgacha borishlari, davlat amaldorlarining o'z jonlarini saqlash maqsadida hech o'ylanmay, vijdonlari qiyalmay qo'lli balanda tomonga o'tib olishlari, tuzini yeb tuzlig'iga tupirishgacha borishlari bularning bari qalbida zarra g'ubori bo'lмаган, faqat va faqat xalq g'ami bilan yashagan Navoiyni hayratlantirmay qolmasdi.

Nega endi tarixiy bir davr, tarixiy sharoit yoritilgan ushbu asar bugun uchun ham juda ahamiyatli asarga aylandi. Buning asosiy sababi bugun ham siz-u bizning oramizda o'z nafsi yo'lida do'stdan tonadigan, oilasidan voz kechadigan, o'zini jon malhami qilib ko'rsatib joningizni oladigan, orqadan yuzsizlarcha pichoq sanchadigan nafsband kimsalar, afsuski, yo'q emas. Aynan shuning uchun ham bu asar bugungi kun uchun ma'naviy zaruratdir...

Adabiyotshunos Bahodir Karim aytganidek, romanda asriy chinordek Alisher Navoiy siymosi olis moziydan yaqin kelib ko'zga yaqqol tashlanib turibdi. O'zbek adabiyoti Alisher Navoiy bilan ko'rkan va boy. SHuning uchun ham u buyuk zot haqida asar yozish, uning qalb tug'yonlarini tushunish va o'quvchiga tushuntira olish yozuvchidan katta mahorat talab etadi. Emas oson bu maydon ichra turmoq! Isajon Sulton bu og'ir ishni uddalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Kattabekov. O'zbek adabiy tanqidi. Maqolalar toplami. Toshkent. Turon-Iqbol 2011. 285-bet
2. Ozbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2022/8-sон
3. Isajon Sulton.Alisher Navoiy.Roman. Toshkent 2021.15-bet
4. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini organish masalalari. Xalqaro konferensiya materiallari. Adast-poligraf. Toshkent-2022.